



RUXSAT BERISH JARAYONI ELEKTRONLASHTIRILDI



Manba: VMQ-86-son, 22.02.2022-y.

@huquqiyaxborot



Ruxsatnoma olish uchun ariza berish, ko'rib chiqish, qayta rasmiylashtirish, amal qilish muddatini uzaytirish, amal qilishini to'xtatib turish, ularni o'zgartirish, bekor qilish va tugatishning **yagona tartibi belgilandi**



Qaror bilan **27 ta** ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarning pasportlari tasdiqlandi



Endilikda barcha arizalar **elektron tarzda** "Litsenziya" axborot tizimi (*license.gov.uz*) orqali **dam olish va bayram kunlaridan qat'i nazar, har kuni 24 soat davomida** qabul qilinadi



Bu bilan fuqarolarning davlat organlariga "borish" va "kutish" kabi ortiqcha ovoragarchiliklarga chek qo'yildi



Ruxsatnomani olish uchun ariza vakolatli organga **"Litsenziya" AT** yoki **YIDXP** orqali taqdim etiladi

Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berish yoki berishni rad etish to'g'risidagi qaror talabgorning shaxsiy kabinetiga yuboriladi

Ruxsatnoma berish haqidagi ariza **birinchi marta** ko'rish jarayonida ruxsat berilishi uchun zarur hujjatlar to'liq bo'lmaganda ushbu arizani ko'rib chiqish rad qilinmasdan kamchiliklarni bartaraf etish uchun talabgorga muddat berilishi belgilandi

Mazkur qaror **2022-yil 1-martdan** kuchga kiradi.